

***Sodiqjon Ro'zmatov***

*CHDPU 3-kurs talabasi*

***Ilmiy rahbar: Toshmuxammedova Ilmira Suyundikovna***

*CHDPU tyutori*

***ANNOATATSIYA:*** *Abulqosim Firdavsiy fors-tojik klassik adabiyotida juda mashhur shoirlardan hisoblanar edi. Shoir zamonidan keyin kelgan adiblar shoirning mahoratiga tan berib, uning "Shohnoma" asariga ta'zim aylaganlar va uni kalomda payg'ambarlar darajasiga loyiq hisoblaganlar:*

*Dar nazm se tan payambaronand,*

*/Nazmda uch nafar payg'ambarlardir/*

*Harchand ki "lo nabiya ba'diy"*

*/Garchi undan keyin payg'ambar bulmasa ham/*

*Avsofu qasidayu g'azalro,*

*/Qasida va g'azal ta'riflarida/*

*Firdavsiyu Anvariyyu Sa'diy.*

*/Firdavsiydur Anvariyydur va Sa'diy/*

***Kalit so'zlar:*** *klassik, ta'zim, kalom, adib, vasf, darhaqiqat, jang, tasodif, xulq, nihon, ta'rif, idrok.*

Idrok vasfini buyuk shoir Abulqosim Firdavsiy o'zining zavolsiz "Shohnoma" asarida yuqori darajaga kutargan. Bu holat tasodif emas, bu asar nafaqat janglar haqida balki xulq haqida bahs yuritadi. Bu asar 10 asrda yozilgan bo'lib, usha davrda Somoniylar davlati hukmron edi, ularning adabiyotida aql va idrok vasfi asosiy mavzuni o'z ichiga olar edi. Shoir bu asarni Somoniylarning oxirgi hukmronlik davriga bag'ishlagan. Buyuk idrok vasfi shundan ayonki, "Shohnoma" asari "Kalom idrok vasfidadir", degan muqaddima bobi bilan boshlangan. Firdavsiy idrok vasfini "Idrok qadri" deb nomlaydi, ma'nosi idrok

maqomini yuqori kutarishdir. Firdavsiy o'zining asarida insonning aqlu idrokiga maxsus e'tibor qaratadi. Darhaqiqat, u idrokni Alloh insonga bergan barcha narsalardan ustun quyadi. Firdavsiy idrokni faqat insonga berilgan narsa deb biladi balki uni Alloh tarafidan birinchi yaratilgan narsa deb hisoblaydi. Uning bu fikri falsafa diniga muvofiq bo'lib, shu jihatdan Alloh insonni yaratishdan oldin, idrokni( aql)-ni yaratgan. Firdavsiy idrok martabasini inson uchun jonga tenglashtiradi, yani uni jon bilan qiyoslaydi. Demak, jon inson uchun qanchalik qadrli bo'lsa, idrok ham shu qadar qadrli va sharaflidir. Idrokni jonga teng ko'rish to'g'ri bo'lib, ikkalasi ham insonning ruhiy tomonini ifoda etib, uning uchun hama narsadan muhim va asosiydir. Shoir idrokni jonga tenglashtirib uni "jon ko'zi" va "jon himoyachisi" deb nomlagan. Idrok natanho jonning himoyachisi balki insonning ko'zi, qulog'i va tilidir, bu uch narsa bilan, borliqdagi yaxshiligu yomonlik insonga yul topadi. Yaxshiligu yomonlikni ko'z ko'radi, quloq eshitadi va til gapiradi. Idrok shu uch narsani yomon ko'rishdan, eshitishdan va aytishdan saqlaydi va faqat yaxshilikni qabul qilishga undaydi. Firdavsiy insonni idroksiz tasavvur qila olmaydi. U idroksizlikni devonalikning bir turi va idroksizni devonalar ahlidan dep hisoblaydi. Idroksiz kishi idrokli kishining ko'ziga xuddi devonadek ko'rinadi, chunki u aqlsizlikdan va idroksizlikdan o'zining gapirganini tekshirmasdan va fikr yuritmasdan, xato gapni aytib quyadi va notug'ri muomala qiladi va natijada oxiri pushaymonlik bilan tugaydi. Idroksiz kishi doimo fikrlamaslikdan va o'zining qilgan xatosidan pushaymon bo'ladi, ammo uning pushaymoni foydasizdir. Uning ishi tuzatilmas xato bo'lgani uchun qalbi dardlidir. Idrokli kishi esa hamma ishini aql doirasidan tekshirib, puxta uylab keyin oxiriga yetkazadi. Shuning uchun uning qilgan ishidan va aytgan so'zidan juda kam xato topiladi. Idrokli kishi ishning oxirini uylaydi va qilmoqchi bo'lgan ishining xayrlisini tanlaydi. Bu yulda unga aqlu idroki yo'l ko'rsatadi. Firdavsiy idrokni insonning hayotdagi yulboshchisi deb hisoblaydi. Shoir idrokni misoli insonning xaloskori ikki saroyda ya'ni bu dunyo va u dunyoda deb sifatlaydi. Shu ma'nodan kelib chiqib inson idrokning yordami bilan bu dunyoda yomonliklardan uzoq bo'lib, yaxshilikni ixtiyor qiladi va natijada hayotning saodatiga erishadi, shu

jumladan gunohlardan pok bo'lib, o'zining xotirjam hayotini u dunyoda ham taminlaydi. Shunday ekan idrok insonni har ikki dunyoda qadrini yuqori darajaga kutaradi. Donishmand kishining u dunyoda qadri baland bo'lishi uning bu dunyodagi solih ishlari va gunohlardan pok bulishidadir. Idrokdan uzoq bo'lgan kishi esa ikki dunyoda ham o'qimdir, u o'zining ilmining ozligidan xato yulga borgan, bilmasdan yomonliklar sodir etgan va shu sababdan gunohga g'arq bo'lib, o'zini oxirat azobida kuradi. Firdavsiy ta'kidlaydiki agar inson idrokni o'zining kunlik dasturi qilib olsa va unga amal qilsa, joni azobda qolmaydi va yomonlikdan uzoqlashadi.

Shunday qilib, Firdavsiy o'zining so'zini idrok vafida, nazaryaviy falsafiy fikrlashdan boshlab, uni amaliyotda qullashning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Firdavsiy o'z "Shohnoma"-sining "Kalom idrokning vafida" faslining oxirida nasihat sifatida, ilm o'rganishlikni targ'ib etadi. Uning da'vati shundayki dono insonning maslahati yuzasidan hayot yuliga qadam quyish va va uning ko'rsatmalariga amal qilish lozimdir. Bundan tashqari inson qaysi limdan xabar topsa, uni o'rganish bilan mashg'ul bo'lsin va undan bahra olib amalda qullasin.

Kunun, ey xiradman, arji xirad  
/Shu vaqt gacha, ey donishmand idrok qadrini/  
Bad-in joygah guftan andaxurad,  
/Bunga yotar joyni aytish muvofiqdir/  
Bigu, to chi dori, biyor az xirad,  
/Aytgin, ne bor senda, olib kel idrokdan/  
Ki gushi niyushavanda z-u bar xurad.  
/Eshitadigan quloq undan manfiat olur/  
Xirad behtar az har chi Yezid dod.  
/Idrok afzaldir, nimaniki Alloh berdi/  
Sitoishi xiradro beh az rohi dod.  
/Yaxshi bo'lur idrok vasfi adolat yulidan/  
Xirad rahnamoyu xirad dilkushoy,  
/Idrok yulboshlovchidir, idrok qalbochar/

Xirad dast girad ba hardu saroy...  
/Idrok yul boshlar ikki saroyga/  
Chi guft on xiradmand mardi xirad,  
/Ne aytdi u donishmand idrokli kishi/  
Ki dono zi guftori u bar xurad:  
/Dono esa uning so'zidan manfiat olur/  
Kase, k-u xiradro nadorad zi pesh,  
/Kimki idrokni oldinga quymas/  
Dilash gardad az kardani xesh resh,  
/Qalbi qilganidan dardmand bulur/  
Hushivar devona xonad varo,  
/Hushyor kishi devona ataydi uni/  
Hamon xesh begona xonad varo.  
/O'zi han begona ataydi uni/  
Az uy ba har du saroy arjmand,  
/Ikki saroyda hurmat unikidir/  
Gusistaxirad poy dorad ba band.  
/Nodoning oyog'i bor bog'langan/  
Xirad chashmi jon ast, chun bingari,  
/Idrok jonnig ko'zidur, agar boqsang/  
Tu be chashmi shodon jahon naspari.  
/Sen ko'zsiz baxt bilan jahon kezoilmaysan/  
Naxustofarinish xiradro shinos,  
/Avval yaralgan idrokni tanigin/  
Nigahboni jon astu oni se pos  
/Jonnih qarovchisidir u uch a'zo/  
Se posi tu gush astu chashmu zabon,  
/Sening uchta a'zoying qulog'ing, ko'zing, tilingdir/  
K-az inat rasad neku bad begumon  
/Bulardan tegar shubhasiz yaxshiligu yomonlik/

Xiradrovu jonro ki yorad sutud?

/Jonning idrokini hamrohing vasf qilurmi?/

Agar man sitoyam, ki yorad shunud?

/Agar man vasf qilsam, hamrohing eshitadimi?/

Hakimo, chu kas nest, guftan chi sud?

/Ey hakim agar hech kim bulmasa, aytishdan ne naf?/

Tui kardayi Kirdigori jahon,

/Seni qilimishing olam Robbiga/

Shinosi hame oshkoru nihon.

/Ma'lumdir hama oshkoru yashirin/

#### **REFERENCES**

1. Абдуллаев А. Заҳирӣ Форёбӣ. Душанбе, 1974; Адабиёти форс-тоҷик дар нимаи аввали асри 11. Душанбе, 1979.
2. Акбаров Юсуф. Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе 1977.
3. Амонов Раҷаб, Таърихи адабиёти советии тоҷик, Душанбе 1982.